

**BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY
INDIVIDUALLIGINI SHAKLLANTIRISHDA KOMPYUTER
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada mutaxassislik fanlarini o'qitishda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy individualligini shakllantirish, shuningdek, an'anaviy va noan'anaviy uslublar yordamida darslarni o'tishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kasbiy mahorat, ko'rgazmalilik, "Vernisaj" slayd-shousi, rassomlar ijodi, tasviriy san'at, kompozitsiya, rassomlar asarlari reproduksiyalarini, grafik materiallar, kasbiy individuallik, kompyuter texnologiyalari.

**ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В
ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИНДИВИДУАЛЬНОСТИ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА**

Аннотация. В данной статье проанализированы вопросы формирования профессиональной индивидуальности будущих учителей изобразительного искусства при обучении специальным дисциплинам, а также развития их творческих способностей посредством использования компьютерных технологий при проведении занятий с использованием традиционных и нетрадиционных методик.

Ключевые слова: профессионализм, наглядность, слайд-шоу "вернисаж", творчество художников, изобразительное искусство, композиция, репродукции произведений художников, графические материалы, профессиональная индивидуальность, компьютерные технологии.

Mamlakatimiz rivojlanishining chuqur iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar ro'y berayotgan hozirgi bosqichida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish sifatini oshirish yo'llari va vositalarini izlab topish zamonaviy pedagogikaning asosiy dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bu masalaga Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan ham katta e'tibor berilib kelinayotganligi hammamizga ayon. O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim islohoti bevosita uning demokratik, bozor munosabatlariga o'tish jarayoni bilan birga amalga oshmoqda. Mazkur jarayonlar mohiyatan pedagogik ta'lim tizimi kadrlar tayyorlash imkoniyatlarining tubdan yaxshilanishiga, jamiyatni og'ishmay rivojlantirish negizida umumjahon ta'lim muhitiga mos tarzda uzluksiz pedagogik ta'lim tizimini yaratishga olib keladi¹. Zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayoniga, jumladan tasviriy san'at, darslariga kirib kelishi yangi imkoniyatlar ochmoqda. Bunday holda, tasviriy san'at

o'qituvchilari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini badiiy-ijodiy rivojlantirishning yangi vositasiga aylantirishi zarur.

Tasviriy san'at darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning eng ko'zga ko'ringan afzalliklaridan biri ko'rgazmalilikni kuchaytirishdir. Shu o'rinda pedagog Konstantin Dmitriy Ushinskiyning mashhur so'zlarini eslatib o'tmoqchiman: "O'quvchilar tabiati ko'rgazmalilikni talab qiladi.

O'quvchiga o'zi bilmaydigan beshta so'zni o'rgatish, u uzoq vaqt behuda qiynaladi; ammo yigirmata shunday so'zni rasmlar bilan bog'lang - o'quvchi ularni bir zumda o'zlashtirib oladi. Siz o'quvchiga juda oddiy fikrni tushuntirasiz, u sizni tushunmaydi; o'sha o'quvchiga murakkab

chizilgan rasmni tushuntirasiz, u sizni tez tushunadi... rasmlarni ko'rsatishni boshlang va auditoriya gapira boshlaydi, eng muhimi, erkin gapiradi..."

Ko'rgazmalilikdan foydalanish ayniqsa juda muhim, chunki ta'lim muassalarida, odatda, jadvallar, reproduksiyalar, illyustratsiyalarning zarur to'plamlari zaruriy miqdorda mavjud emas. Bunday holatlarda proyektordan kehgroq foydalanish zarur. Fan bo'yicha elektron nashrlar, filmlar va boshqa materiallar mavjud bo'lsa, ulardan ma'ruzani qisman to'ldirishda foydalanish mumkin. Misol uchun o'quvchilarga, tarixiy voqea, xujjatlarni tushuntirishda xaritalar, jadvallar va fotosuratlar aks ettirilgan slaydlarni ko'rsatish bilan birga olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tasviriy ijod o'quvchilarning eng sevimli mashg'ulotlaridan biridir. Bu ish badiiy qobiliyat, tasviriy savodxonlik bilimlarini talab qiladi. Ko'rishning keng obrazli va taassurotli esda qoladigan bo'lishida ijodiy tasavvurning rivojlanganlik darajasi katta ahamiyatga ega. O'quvchida o'z taassurotlarini chizgan ishlarini ifoda etish istagi paydo bo'ladi. U qo'lga qalam olib, rasm chizadi... Biroq shunday payt keladiki, yosh rassom mo'yqalamni tashlab qo'yadi va ijod qilishni to'xtatadi.

O'quvchiga qanday yordam berish mumkin?

Bu yerda zamonaviy kompyuter dasturiy vositalaridan unumli foydalanish juda qo'l kelishi mumkin. "Tasviriy san'at" fanining asosiy maqsadi - o'quvchilarga atrofdagi voqelikni anglashga yordam berish, ularda kuzatuvchanlikni rivojlantirish, atrofdagi dunyoni kengroq va har tomonlama ko'rishga o'rgatish, ularda go'zallik tuyg'usini tarbiyalash, shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Tasviriy san'at darslarining asosiy vazifalari o'quvchilarni badiiy-tasviriy faoliyat sohasining kengligi va xilma-xilligi bilan tanishtirish, ularga tasviriy san'atning turli materiallari va vositalari texnikasini o'rgatish, o'quvchilarni buyuk rassomlar asarlari bilan tanishtirish, shuningdek, badiiy obrazlarni yaratish va idrok etishga o'rgatishdan iborat.

Har bir mashg'ulotni qanday qilib mazmunli, qiziqarli va eng muhimi - har bir o'quvchining rivojlanishiga yo'naltirilgan qilish mumkin?

Bugungi kunda ta'lim texnologiyalarini o'rganmasdan turib, pedagogik jihatdan savodli mutaxassis bo'lish mumkin emas. Zamonaviy innovatsiyalarning keng doirasida o'z yo'nalishni topa bilishi zarur.

Men tasviriy san'at darslarining xususiyatlarini hisobga oladigan ish tizimini yaratishga yordam beradigan ko'plab konsepsiyalar, nazariyalar, texnologiyalar va usullarni tanlab oldim. Zamonaviy o'quvchi darsda o'tirib, o'zi uchun tayyorlangan barcha bilimlarni bo'shliq kabi o'ziga singdirib ololmaydi.

Zamonaviy o'quvchi faqat o'zini ko'proq qiziqtirgan, o'ziga eng yaqin bo'lgan, yoqimli va qulay his-tuyg'ularni uyg'otadigan, eng kam zo'riqtiradigan ma'lumotlarni o'zlashtiradi. Zamonaviy o'quvchi uchun ta'limining motivatsiyasini oshirish va individuallashtirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ijobiy hissiy muhitni yaratishning noyob imkoniyatiga ega vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ushbu maqsadda kompyuterlarning texnik va texnologik dasturiy vositalaridan unumli foydalanish juda qo'l keladi. Hozirgi vaqtda juda ko'p ma'lumotlarni o'z ichiga olgan turli xil san'at disklari mavjud, ammo bunday disklardan to'liq hajmda foydalanish maqsadga muvofiq emas, chunki ko'pincha bu yorqin va ta'sirchan ensiklopediyalar o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish qoidalari va qonunlarini hisobga olmaydi.

Shuning uchun dars rejasi-konspektini ishlab chiqishda, qoida tariqasida, olingan bilimlarni tushunish uchun yangi mavzu bayon qilingandan so'ng yoki dars oxirida ularni mustahkamlash uchun ushbu disklardagi video syujetlardan faqat qisman foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

O'z tajribamdan kelib chiqib, shaxsiy fayllaringizni yaratish kerak deb hisoblayman. Slayd-filmlardan barcha mavzularda foydalanish va ularni darsning istalgan bosqichiga kiritish mumkin. Ular odatda matnli kuzatuvga ega bo'lmaydi, namoyish o'qituvchining qisqacha sharhi bilan birga olib boriladi. Slayd-filmni ko'rgandan so'ng o'quvchilar darhol amaliy ishga kirishishlari uchun

slaydlar to'plamini shunday tuzish kerakki, avval hissiyot uyg'otadigan murakkab asarlar, keyin fragmentli slaydlar, oxirida esa kompozitsiya jihatidan sodda, dars mavzusiga yaqin bo'lgan asarlar ko'rsatiladi.

Shunda o'quvchilarda o'zlari ham shunday ishni bajara olishlari haqida taassurot paydo bo'ladi. Bu usul faoliyat turlarini o'zgartirishga imkon beradi, dars yanada yorqin va ta'sirchan bo'ladi, o'quvchilar tomonidan bajarilgan ishlar esa ijodiy va mavzuni to'liq yoritadi. Ularni darsning birinchi bosqichida, o'tilgan materialni takrorlash daqiqalari sifatida, dars boshida muammo yaratish, e'tiborni jalb qilish, qiziqitirish, keyingi ta'limga ishtiyoq uyg'otish ("Aqliy hujum")ni qo'llash mumkin. Dars oxirida slayd-filmlar yakunlovchi "bosqich" bo'lishi mumkin, bunda o'quvchilar yangi narsalarni qiyinchiliksiz bilib oladilar va nomlaydilar ("Vernisaj" slayd-shousi (slaydlar orqali virtual ko'rgazma uyshtirish, masalan; mahorat darsi, ko'rgazma namoyishi, biror kishining yoki guruhning shaxsiy ko'rgazmasi, san'at tarixi davrlari va reklama taqdimotlari)).

Multimedia taqdimotlari va slayd-filmlardan darslarda keng foydalanish mumkin:

- *rassomlar ijodi bilan tanishishda;*
- *tasviriy san'at janrlarini o'rganishda;*
- *kompozitsiya qonunlarini o'rganishda;*
- *rangshunoslik qonunlarini o'rganishda va hakazo.*

Dars davomida yangi bilimlarni shakllantirishda ko'plab eskizlarni chizishga, tushuntirish va doskaga chizishga to'g'ri keladi. Taqdimot orqali namoyish qilayotgan ekranda barcha kompozitsion xatolar yaqqol ko'rinadi, buning ustiga ekranda bir vaqtning o'zida bir nechta eskizlarni taqqoslash, ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash mumkin.

Tadqiqotim tajriba ishimda: bir auditoriyada an'anaviy usulda dars berdim - birinchi qatordan oxirgi qatorgacha yurib, fotosuratlar yoki reproduksiyalar bilan rasmlarni ko'rsatdim, boshqa auditoriyada esa - o'quvchilar ekranda mavzuning taqdimotini tomosha qilishdi. O'qituvchining izohlari bilan bunday ko'riklar o'quvchilarda chuqur taassurot qoldirdi, bu esa ijodkorlikka katta turtki berdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta'lim jarayoni uchun zaruriy shart bo'lib, bunda asosiy narsa fundamental bilimlarni uzatish emas, balki ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, shaxsning salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsad sifatida emas, balki dars maqsadiga erishishga ko'maklashuvchi yana bir pedagogik vosita sifatida foydalanildi.

Tasviriy san'at darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash bo'yicha adabiyotlar va ilg'or pedagogik tajribani o'rganish natijasida shunday xulosaga keldimki, ushbu texnologiyadan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish ko'lami juda keng; badiiy faoliyat vositasi sifatida qo'llashdan tortib, o'quv ma'lumotlarini taqdim etish usullarigacha o'z ichiga olgan. Shu bilan birga, kompyuter ta'lim samaradorligini oshirishning kuchli vositasi bo'lib, o'quvchining motivatsiyasini kuchaytirish imkonini beradi. Motivatsiya manbalaridan biri qiziqarlilikdir. Kompyuterning imkoniyatlari bu yerda cheksiz, lekin bu qiziqarlilik o'quv maqsadlarini to'sib qo'ymasligi juda muhim.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida kompyuter vositalarini amaliyotda qo'llab, uning tasviriy san'at mashg'ulotlarida foydalanish imkoniyatlari haqidagi shunday umumiy xulosaga kelindi:

1. *Kompyuter pedagog va o'quvchi muloqotini yaxshilashda ijobiy natijaga erishish uchun qulay hamda keng imkoniyatlarga ega.*

2. *Ta'limda ko'rgazmali tushuntirish hamda reproduktiv usullarni qo'llashning yangi va sifatli darajaga ko'tarilishini ta'minlaydi.*

3. *Mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim shakli, o'quvchilar bilim doirasini kengaytirishga xizmat qiladi, diqqatni jamlaydi, shaxsning ijodkorlik imkoniyatlarini oshiradi.*

4. *Pedagog maslahati bilan o'rgatuvchi dasturlarni mustaqil qo'llash orqali rangtasvir, kompozitsiya fanlarini samarali o'zlashtirishlariga imkon yaratadi.*

5. *Proyektorlardan foydalanish matnlar bilan ishlash, o'rgatuvchi videoroliklar namoyish etishda qulaylik yaratadi, ko'rgazmalilikni oshiradi, vaqtni tejaydi.*

6. *Elektron ensiklopediyalar bilan tanishish, jahon muzey va ko'rgazma zallari bo'ylab virtual sayohatlar uyushtirish imkonini beradi.*

7. *Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning internet orqali axborotlar izlash, topish, tanlash va olingan ma'lumotni jamlash kabi mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.*

8. *Tasviriy san'at mashg'ulotlarida kartinalar, chizmalar, jadvallarni yorqin va qiziqarli shakllarda kuzatish, obyektlarni foto va videotasmalar vositasida ko'rish, u yoki bu mavzudagi materialni aniq idrok etish, tanlangan materialni qiziqarli shaklda tasvirlashga yordam beradi.*

Shunday qilib, mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish vaqtni tejash, shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirish, psixologik-pedagogik bilimlar asosida o'quv-tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri tashkillashtirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: Moliya, 2003.
2. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolatning psixologik o'ziga xos xususiyatlari.. –Toshkent: 2002.
3. Usmonboyeva M., G.Anorqulova, G.Shamaripxodjayeva "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" o'quv uslubiy majmua. T. 2015 yil.
4. Yuldashev, U.A., Xudoyberdiyev, M.Z., & Axmedov, T.B. (2021). O'quv jarayonining sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. //Academic research in educational sciences, 2(3), 1262-1268.
5. Слостенин А.А. Профессионализм учителя как явление педагогической культуры. // «Педагогическое образование и наука», 2004, № 5.